

CHET TILINI O'RGANISHDA LEKSIK KOMPETENSIYANI OSHIRISH UCHUN FLASH-KARTALARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Dexkonova Guljaxon Ahmadjanovna

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: guljahondekhonova90@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola chet tilini o'rganuvchilar uchun lug'at boyligini kengaytirish va leksik kompetensiyani rivojlantirishda flash-kartalarning o'quv jarayonidagi o'rnini yoritishga qaratilgan. Flash-kartalar o'quvchilar uchun yangi so'z va iboralarni oson o'zlashtirish, ularni eslab qolish va amaliyotda qo'llashga yordam beruvchi samarali didaktik vositadir. Maqolada flash-kartalarning didaktik imkoniyatlari, jumladan: vizual yondashuv orqali tushunishni osonlashtirish, o'quv jarayonini qiziqarli qilish va bilimlarni mustahkamlash imkoniyati batafsil ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada flash-kartalar asosida tashkil etilgan mashqlar o'quvchilarning faolligini oshirishi, ularni mustaqil ishlashga undashi va bilimlarini tizimlashtirishiga yordam berishi ta'kidlangan. Flash-kartalar bilan ishlashning asosiy afzalliklari so'zlarni takrorlash va vizual ko'rgazmalilik yordamida uzoq muddatli xotirada saqlash hamda o'yin shaklidagi topshiriqlar orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: flash-kartalar, leksik kompetensiya, chet tili, didaktik imkoniyatlar, vizual yondashuv, o'quv jarayoni.

DIDACTIC OPPORTUNITIES OF FLASHCARDS TO ENHANCE LEXICAL COMPETENCE IN LEARNING A FOREIGN LANGUAGE

Dexkonova Guljaxon Ahmadjanovna,

a lecturer at Namangan State Pedagogical Institute.

E-mail: guljahondekhonova90@gmail.com

Annotation: This article focuses on the role of flashcards in expanding vocabulary and developing lexical competence for foreign language learners. Flashcards are an effective didactic tool that facilitates the easy acquisition, retention, and practical use of new words and phrases. The article examines the didactic opportunities provided by flashcards, including simplifying comprehension through visual aids, making the learning process engaging, and enhancing knowledge retention. It also highlights how exercises based on flashcards can increase student activity, encourage independent work, and help systematize their knowledge. The main advantages of working with flashcards include: Repetition and visual representation to ensure long-term memory retention of vocabulary. Increasing student interest through game-based activities.

Keywords: flashcards, lexical competence, foreign language, didactic opportunities, visual approach, learning process.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФЛЭШ-КАРТ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Дехконова Гульжахон Ахмаджановна

Преподаватель Намаганского государственного педагогического института.

E-mail: guljahondekhonova90@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается роль флэш-карт в расширении словарного запаса и развитии лексической компетенции у изучающих иностранные языки. Флэш-карты являются эффективным дидактическим инструментом, который облегчает усвоение, запоминание и практическое использование новых слов и выражений. В исследовании анализируются дидактические возможности флэш-карт, такие как упрощение восприятия материала за счет визуальных средств, повышение увлекательности учебного процесса и улучшение запоминания изученного материала. Также подчеркивается, что упражнения с использованием флэш-карт могут повышать активность учащихся, мотивировать их к самостоятельной работе и помогать систематизировать их знания. Основные преимущества работы с флэш-картами включают: Повторение и визуализацию, способствующие долговременному запоминанию лексики. Повышение интереса учащихся за счет игровых заданий.

Ключевые слова: флэш-карты, лексическая компетенция, иностранный язык, дидактические возможности, визуальный подход, учебный процесс.

KIRISH

Chet tilini o'rganish sohasida mustahkam leksik kompetensiyani rivojlantirish samarali muloqot va tushunishning asosiy omili hisoblanadi (Li., 2022). Lug'at boyligini egallash tilni bilishning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning tinglash, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalari darajasini belgilaydi (Nugroho & Arini, 2021). Shu bois, lug'at boyligini oshirishga qaratilgan pedagogik strategiyalar tadqiqotchilar va o'qituvchilarning katta e'tiborini tortmoqda (Barcroft, 2004; Pamungkas va boshq., 2022).

Ushbu strategiyalar orasida flash-kartalardan foydalanish keng tarqalgan va oddiy ko'ringan, ammo chet tilini o'rganayotganlar uchun juda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda (Handig, 2023). Flash-kartalar odatda bir tomonida so'z yoki ibora, ikkinchi tomonida esa uning ta'rifi, tarjimasi yoki tasviri keltirilgan

kartochkalardan iborat bo'lib, ularning ko'chma va moslashuvchan xususiyatlari o'z-o'zini sinash hamda oraliq takrorlash imkoniyatini beradi (Sarudin , 2019).

Qo'shimcha qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars davomida ingliz tilini o'rgatishda turli xil usul va metodlardan foydalanish samarali usullardan biri bo'lib kelmoqda. Xususan flash-kartalardan, traqatmalardan, ko'rgazmalardan, savollardan foydalanilsa dars unumli bo'ladi. Ushbu usul va metodlar ko'proq boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun samarali bo'lmoqda chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarida til o'rganish ehtiyoji kuchli va ular ko'proq darsni o'zida mavzuni o'zlashtirishadi turli innovatsion metodlar ularga ingliz tilini o'rganishda qo'l keladi. Va shuningdek, Ingliz tili darslarida o'quvchilarning lug'at boyligini rivojlantirish va mustahkamlash ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali qilish va o'quvchilarda qiziqish uyg'otish uchun turli usullar, jumladan, o'rganilgan lug'atni mustahkamlashga yo'naltirilgan vositalar qo'llaniladi. Biz bu vositalarni didaktik vositalar deb hisoblaymiz.

MAVZUGA OID MATAERIALLAR VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Flash-kartalarning leksik kompetensiyani rivojlantirishdagi o'quv-potensialini so'z boyligini egallashga oid bir nechta muhim kognitiv jarayonlarni qo'llab-quvvatlash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Birinchidan, flash-kartalar **aktiv eslab qolish** jarayonini rag'batlantiradi. Bu usul axborotni faqat qayta o'qish emas, balki xotiradan faol ravishda chaqirib olishni o'z ichiga oladi (Golonka va boshq., 2012). Aktiv eslab qolish passiv takrorlashdan ko'ra uzoq muddatli xotira uchun samaraliroq ekani isbotlangan, chunki u o'rganilgan so'zlar bilan bog'liq asab yo'llarini mustahkamlaydi (Alizadeh, 2016).

Flash-kartalar yordamida o'quvchi so'z yoki iborani ko'rib, uning ma'nosini eslashga harakat qiladi. Bu esa ularning o'quv materialiga faolroq jalb etilishiga va chuqurroq tushunishiga yordam beradi. Bundan tashqari, flash-kartalarni **oraliq takrorlash (spaced repetition)** usulida qo'llash mumkin. Bu usul o'rganilgan materialni ma'lum vaqt oralig'ida takrorlashni o'z ichiga oladi. Oraliq takrorlash tamoyiliga ko'ra, ma'lumot unutilishidan oldin takrorlansa, xotirada uzoqroq saqlanadi (Ebberts & Denton, 2008).

Anki va Memrise kabi flash-karta tizimlari o'quvchining natijalariga qarab so'zlarni optimal oraliqlarda takrorlashni avtomatik ravishda jadval asosida tashkil qiladi.

Bundan tashqari, flash-kartalar turli **o'quv uslublari va shaxsiy afzalliklarga moslashtirilishi** mumkin. Masalan, vizual (ko'rish orqali o'rganadigan) o'quvchilar so'zlarni tasvir yoki diagrammalar bilan birlashtirilgan flash-kartalar orqali o'rganishdan katta foyda olishlari mumkin (Wang & Dostál, 2018). Yuqoridagi fikrlarni biz maktabdagi kichik yoshdagi maktab o'quvchilari uchun qanday samara berishi haqida aytib o'tamiz. *Leksik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun flash-kartalar ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi va turli yoshdagi o'quvchilar uchun samarali o'qitish vositasi hisoblanadi. Va biz birinchi didaktika o'zi nima? Va uning asosiy vazifalarini yoritib chiqamiz.* Didaktika – bu o'qitish va ta'lim olish jarayonini o'rganuvchi fan bo'lib, u quyidagi ikki asosiy qismni o'z ichiga oladi: o'qitish jarayonining hisoblanadi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va bir biriga bo'lgan munosabatini hisobga olish mumkin.

Didaktikaning asosiy vazifalari orqali biz ta'lim samaradorligini oshirishimiz mumkin va ular quydagilarni misol qilib olishimiz mumkin: Ta'lim jarayonining mohiyati va shart-sharoitlarini aniqlab va tushuntirishimiz kerak bo'ladi.

Innovatsion o'qitish usullarini ishlab chiqib ularni darsda qo'llashdan iborat.

Ta'lim jarayonini tashkil qilishda bizda didaktik vositalar juda muhimdir va ularga biz hattoki darsliklarni ham misol qilib olishimiz mumkin.

Zamonaviy o'quv tizimlarini joriy etishda esa innovatsion pedagogic texnologiyalardan foydalanishimiz mumkin.

Yangi texnologiyalar asosida o'qitishni rivojlantirishda esa juda samarali usullardan foydalanish bu ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladi. Flash-kartalarning ta'lim jarayonida qo'llanishi didaktikaning bir qator prinsiplariga to'g'ri keladi: Va ular quydagilarni misol qilishimiz mumkin. O'rganilayotgan malumot aniq faktlar va standartlarga asoslangan bo'lishi kerak deb Borovskikh o'zining kitoblarida takidlab o'tgan. Nazariy bilimlarni esa kundalik hayotda qanday qo'llanilishini tushuntirish ham asosiy ro'l o'ynaydi. Izchillik va tizimlilikga esa o'quv materiali mantiqiy tartibda va o'quvchining bilim darajasiga mos bo'lishi shart.

Tushunarlilikga ham o'qitish o'quvchining bilim darajasiga mos ravishda qiyinchilik darajasini saqlagan holda tashkil etilishi lozim. Ko'rgazmalilikga ham vizual vositalardan foydalanish o'quvchilarning yangi ma'lumotni tezroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Faollik ham ta'lim jarayonida o'quvchi va o'qituvchi birgalikda faol ishtirok etadi. Bilimlarni mustahkamlash: takrorlash va nazorat qilish yordamida bilimlarni uzoq muddatga xotirada saqlashga erishiladi

Leksik kompetensiyani oshirish uchun flash-kartalarning o'quv jarayonidagi afzalliklari quydagicha bo'ladi. Flash-kartalar darslarni rang-barang va qiziqarli qilishga imkon beradi. Ushbu vosita yordamida o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradilar:

- O'quv jarayonida faol qatnashishni talab qiladi.
- O'rganishni qiziqarli didaktik o'yinlar shaklida tashkil qilishdan iborat.
- Mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va nutqni rivojlantirishga hizmat qiladi.
- Bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishni ustuvor vazifa etib hisoblaydi.
- O'z bilim darajasini nazorat qiladi.
- Bilimdagi kamchiliklarni aniqlash va ularni to'ldirishga hizmat qiladi.
- Mustaqil ravishda bilim olish va o'zlashtirishga qaratiladi.

Flash-kartalar o'qituvchiga materialni ko'rgazmali va qiziqarli tarzda taqdim etish imkonini beradi, bu esa kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi. Ushbu vosita yordamida o'quvchilar yangi bilimlarni samarali ravishda uzoq muddatli xotirada saqlab, kerakli vaqtda osongina yodga olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ishlab chiqilgan "Guess What" kitobi bo'lib, dastlabki tayyorgarlik bosqichi sifatida "Student's book, work book" ni o'z ichiga oladi. To'rt bosqichli tizim quyidagilardan iborat:

"Guess What"(Student's book, work book)–1-sinf, 7–8 yoshli bolalar uchun. "Guess What"(Student's book, work book)–2-sinf, 8–9 yoshli o'quvchilar uchun. "Guess What"(Student's book, work book)–3-sinf, 9–10 yoshli bolalar uchun. "Guess What"(Student's book, work book) – 4-sinf, 10–11 yoshli bolalar uchun.

Guess What kitobi (Student's book va work book) ni o'z ichiga oladi. Darslik (Student's Book): o'quvchilar dars davomida o'qituvchi yordamida so'zlarni yod olishadi, albatta rasmlari bilan, hikoyalar tuzish va takrorlash imkoniyatini taqdim etadigan video disklari ham bor. Ushbu kitobni mahsus har bir darsga oid videolari va ovozli hikoyalari shuningdek, lug'at va grammatikani mustahkamlovchi interaktiv topshiriqlarni o'z ichiga oladi.

Ishchi daftari (Work Book): tinglash, gapirish, o'qish va yozish kabi asosiy ko'nikmalarni rivojlantirishga mo'ljallangan mashqlarni o'z ichiga oladi. Va boshlang'ich sinflar mavzuni mustahkamlash uchun ramlardan tashkil topgan mashqlarni o'z ichiga oladi.

O'qituvchi uchun qo'llanma (Teacher's Book) ham mavjud. Bu o'qituvchi kitobida esa barcha darslarni to'g'ri tashkil qilish uchun dars ishlanma (lesson plan) va har birini minutga qo'ygan holda o'qituvchiga oson bo'lishi uchun yo'l yo'riqlar berilgan. Darslar uchun nazorat javoblari, lug'at ro'yxati va qo'shimcha materiallarni o'z ichiga oladi.

1. Interaktiv resurslar bolalar uchun materialni qiziqarli shaklda yetkazishga yordam beradi.
2. **Audio disklar (Audio Class CD):** tovush va talaffuzga oid materiallarni o'z ichiga oladi.
3. **Grammatika kitobi Guess What kitobini ichida berib ketilgan (Grammar Book):** grammatikani mustahkamlash uchun qo'shimcha mashqlarni o'z ichiga qamrab oladi.

"Guess What" (Student's book, work book) kitoblarining asosiy xususiyatlari mavjud.

Ushbu kitob ya'ni "Guess What" (Student's book, work book) chet tilini boshlang'ich bosqichda va qolaversa yuqori sinf o'rganuvchilari uchun zarur bo'lgan minimal talablarni o'z ichiga oladi. Kitobdagi materiallari xalqaro ta'lim loyihalariga moslashtirilib, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda ishlab chiqilgan.

Misol qilib oladigan bo'lsak 2-sinf Guess What (student's book) kitobi 9 ta unitdan tashlik topgan:

Hello again, transportation, pets, clothes, rooms, meals, activities, in town, on the farm. review, my sounds kabi mavzularni tashkil etadi, har bir qism o'z ichida 5 ta dan darsni tashlik etadi.

2-sinf Guess What (student's book) kitobining 26-sahifasida Pets mavzu berilgan,

Ex: Listen. Who is speaking?

Ex: Listen, piont, and say


Ex: Listen and find

Ex: Say and chant

Ex: Look, find, and count (I can see two women).





Ex: Look at your classroom. Then say. (I can see five boys and four girls) Mashq kitobda esa shu mavzuni mustahkamlash uchun harflarni tartiblang va moslashtiring kabi savollar mavjud. Qarang va so'zni aylantiring, tinglang va yopishtiring, so'zlarni yozing va toping.





(Order the letter and match, what's next? Look and circle the word, listen ans stick, write the words and find).





2 Pets



1 thing Order the letters and match.

1  nma man 2  limg _____ 3  mwnoa _____ 4  yob _____

a  soeum _____ b  hifs fish c  ogd dog d  tac cat

2 What's next? Look and circle the word.

1  (girl) / boy 2  fish / frog

3  baby / woman 4  cat / dog

"Guess What" (Student's book, work book) kitobining alohida afzalliklari quydagilardan iborat:

Har bir bosqich o'quvchilarning til ko'nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Darslar yangi lug'atlarni o'rganish, grammatikani tushunish va og'zaki, yozma, o'qish, tinglash amaliyotlarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan.

XULOSA

Ta'lim tizimini yaxshilash uchun didaktik vositalardan foydalanish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Didaktik vositalardan biri bu flash-kartalar ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu didaktik vositalar o'quvchilarni faollashtirib, ularning leksik kompetensiyasini oshirib ularning ijodiy va aqliy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, didaktik vositalar o'qituvchining ishini ham sezilarli darajada yengillashtiradi. **"Guess What" (Student's book, work book)** kitoblari har bir o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali va mazmunli qilish bilan birga, ularni muloqot qilishga va amaliy til ko'nikmalarini rivojlantirishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik qayta ishlangan va to'ldirilgan 2 -nashri. -Toshkent: Talaba, 2012. -432 b.
2. Jalolov J.J, Maxkamova G.T, Ashurov Sh.S. English language teaching methodology. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2015. – 338b.
3. Saydaliyev S.S. Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar. –Namangan: NamDU, 2000. –210 b.
4. G'ulomov A, Qodirov M, Ernazarova M va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012. – 216 b.
5. Hoshimov O'.H., Yoqubov I.Y. Ingliz tili o'qitish metodikasi. –Toshkent: Sharq, 2003. – 301
6. Sobirova, M. (2022). *Ta'limga antroposentrik yondashuv* [Anthropocentric Approach to Education]. Namangan: Usmon Nosir Media.
7. Sobirova, M. (2023). *O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi* [Methodology of Teaching Uzbek Language and Literature]. Recommended as a textbook by the Ministry of Higher Education, Science, and Innovation. Namangan: Arjumand Media.
8. Dehqanova, G. A. (2024). Improving the scientific and methodological aspects of preparing students for effective communication techniques and innovative technologies in teaching foreign languages. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 15(3), 81-88.
9. Dehqanova, G. A. (2024). O'quvchilarga chet tilini o'rgatishda samarali muloqot texnikasiga va innavatsion texnologiyalarga tayyorlashning ilmiy-metodik jihatlarini takomillashtirish [Improving Scientific and Methodological Aspects of Preparing Students

for Effective Communication Techniques and Innovative Technologies in Teaching Foreign Languages]. *Tadqiqotlar.uz*, 33(2), 91–97. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/2306>

10. Dehqanova, G. A. (2024). The importance and role of lexical competence in teaching foreign languages to students. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(05), 16–23. Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/1451>